

*Avazov Jamshid Ahad o'g'li*

*Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti talabasi*

*Avlyoqulov Adham Alisherovich*

*Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti*

*Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi kafedrasi o'qituvchisi*

## **YANGI KONSTITUTSIYA – DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIGA KIRISH BILAN BOG'LIQ BO'LGAN MUNOSABATLARNING HUQUQIY ASOSI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyaning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda, davlat fuqarolik xizmatini isloh qilishda va yo'lga qo'yishda huquqiy ahamiyati, uning avvalgi Konstitutsiyadan farqli tomonlari, huquqiy davlat va demokratik jamiyat qurishda Konstitutsiyaning o'rni, jamiyat va xalq hayotini tubdan isloh qilishda hamda mehnat faoliyatini tenglik, adolat, shaffoflik tamoyillari asosida olib borishda "Manfaatlar to'qnashuvi tog'risida"gi Qonunning roli haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** davlat fuqarolik xizmati, vacancy.argos.uz platformasi, mehnat qilish, erkin kasb tanlash, mustaqil faoliya olib borish huquqlari, manfaatlar to'qnashuvi, yoshlar siyosati, kadrlar masalasi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohatlar, jamiyatda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar demokratik-huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini qurushning muhim poydevori hisoblanadi. Mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirishda qilinayotgan say-harakatlar zahirida fuqarolarning huquq va erkinliklarini yana liberallashtirish, yoshlarimizning yetuk va barkamol, sog'lom va baxtli bo'lib ulg'ayishida keng qamrovli shart-sharoitlarni yaratish jabhasida oldinga surilayotgan tashabbuslarning keyingi porloq qadamlarimizni aniqlab olishimizda tutgan o'rni beqiyos. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan taqsiinga sazovor so'zlari fuqarolarning adolatli jamiyat bunyod etishida o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shishida katta turtki bo'ldi.

2020-yil 8-avgustda qabul qilingan "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonun fuqarolik xizmati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda katta ahamiyatga ega.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning **37-moddasi** davlat fuqarolik xizmatiga bag'ishlanadi. Ushbu norma yangi qo'shilgan bo'lib, ilgargi Konstitutsiyada nazarda tutilmagan edi. Unga ko'ra:

"O'zbekiston Respublikasi fuqarolari davlat xizmatlariga kirishda teng huquqqa egadirlar.

Davlat xizmatini o'tash bilan bog'liq cheklovlar qonun bilan belgilanadi"

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi – davlat tashkilotlarida va davlat organlarida xodimlarni hamda inson resurslarini boshqarish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradigan va bu uchun ma'sul bo'lgan davlat fuqarolik ishlari bo'yicha vakolatli davlat organi hisoblanadi. Aynan ushbu tashkilotning bevosita yordami orqali fuqarolarimiz davlat tashkilotlariga va davlat organlariga ishga qabul qilinmoqda. Barchamizga ma'lumki, fuqarolarni davlat xizmatiga qabul qilish ochiq tanlov sosida olib borilib, ularning kasbiy bilib va malaka ko'nikmasi avvalboshdan sinovdan o'tkazilmoqda. Shuningdek malakatimizda kadrlar masalasiga alohida e'tibor qaratilib, ularni tayyorlash, qayta tayyorlash, bilim va ish tajribasini bosqichma-bosqich amalga oshirish hozirga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir.

Shubhasiz, davlat fuqarolik xizmati o'zi nima degan savol tug'ilishi tabiiy. Ushbu huquqiy maqomga "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risi"dagi qonunning **4-moddasida** quyidagicha izoh berilgan:

Davlat fuqarolik xizmati — davlat xizmatining bir turi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat fuqarolik xizmati lavozimlaridagi davlat organlari vakolatlari amalga oshirilishini ta‘minlashga doir haq to‘lanadigan kasbiy faoliyatini ifodalaydi.<sup>1</sup>

Hozirgi vaqtda mehnat bozoridagi vaziyat barqarorligicha qolmoqda. Statistik ma‘lumotlarga qaraydigan bo‘lsak, 2023-yilning 1-yarmi yakunlari bo‘yicha ishsizlikning darajasi 8,1%ga kamaygan. Mamlakatimiz bo‘ylab poytaxtdan ish izlash, davlat fuqarolik xizmatchilarining bo‘sh ish o‘rinlari platformasi orqali davlat xizmatiga bo‘lgan so‘rovlar yuqori darajada bo‘lib qolmoqda. 2023-yil dekabrda internet orqali e‘lon qilingan ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyoj va talab 49 mingdan ortiqni tashkil qilgan. Vakant o‘rinlar asosan ishlab chiqarish, chakana savdo, oziq-ovqat xizmati hamda qurilish sohalarida mavjud. So‘nggi davr ma‘lumotlariga qaraganda aholi bandligi ortib borayotgan bo‘lsada, o‘shish darajasi o‘tgan yilga qaraganda pasaygan. 2023-yilning 1-yarmi yakuni bo‘yicha ish bilan band bo‘lgan aholi 13,9 million kishini tashkil etgan hamda 2022-yilga qaraganda 0,7 %ga o‘sgan.<sup>2</sup>

Davlat xizmatchilarining ijtimoiy ta‘minoti, ularning huquqiy maqomi, sha‘ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘si kabi masalalarni huquqiy jixatdan tartibga solishni bugungi kunga kelib davrning o‘zi talab qilmoqda. Ushbu masalalarga jiddiy ravishda yondashish orqali sohada bir qator ko‘zga ko‘rinarli islohatlar amalga oshirilib, jamiyatga tadbiq etilmoqda. Ayniqsa, ularning huquq va erkinliklari Bosh qomusimizda mustahkamlanishi, fuqarolarning davlat xizmatiga ishga kirishida mavjud cheklolvar olib tashlanib, bir qancha yengilliklar yaratildi. Har bir shaxs o‘z bilim va malaka-ko‘nikmasiga qarab mustaqil ravishda o‘z faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha ish olib borishga, erkin kasb tanlashga va buni davlat yoki mansabdor shaxslarining hech qanday aralashuvisiz mustaqil tarzda amalga oshirishi kabi konstitutsiyaviy norma jamiyatda qaror topdi. Albatta, ko‘pgina shaxslar o‘z karerasini davlat xizmatida ko‘rishni, o‘z mehnat bilan jamiyatga, ona vatanga munosib hissa qo‘shishni istaydi. Bu esa kishilarning ijtimoiy hayotda faolligini oshiribgina qolmasdan, mamlakat taqdiriga, uning buyuk kelajagiga befarq emasligini ham amalda ifodalaydi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning 2023-yil 8-mayda “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni imzolandi. Farmonda fuqarolarimizning erkin ishlash, erkin harakatlanish, mustaqil kasbiy faoliyatini olib borish hamda yashash va turar joy tanlashda bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqlarini ta‘minlash maqsadida Toshkent viloyati va Toshkent shahrida doimiy ro‘yxatga olish bo‘yicha qonunni o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish va fuqarolarni ro‘yxatga olishda turar joy hamda yashash joyi bo‘yicha xabardor qilishning yangicha tizimi joriy qilinishi aytib o‘tilgan. Bu farmon nafaqat ishchi xodimlar balki chekka hududlardan poytaxtga ish izlab kelgan shaxslar manfaatining aynan ro‘yobidir.

Ajablanarlisi shundaki, davlat xizmatiga kirish haqidagi norma allaqachon siyosiy huquqlardan biri sifatida xalqaro hujjatlarda mustahkamlangan. Jumladan: “Inson huquqlari bo‘yicha umumjahon deklaratsiyasi”ning **21-moddasida** “Fuqarolar o‘z mamlakatida davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega” deb belgilab qo‘yilgan. Zero, salohiyatli va zukko kadrlarni davlat xizmatiga qonuniy, odilona va teng ravishda jalb etish davlat tashkilotlari va davlat organlari faoliyat sohasida raqobat, sifat hamda shaffoflikni ta‘minlashning muhim omilidir. Tenglik va ijtimoiy sheriklikni ta‘minlash orqali olib borilayotgan demokratik islohatlar davlat xizmatiga kirishda bir qator yangicha shart-sharoitlarni yaratmoqda. Fuqarolarning davlat xizmatiga kirishida soddalashtirilgan tizim joriy e‘tilib, ortiqcha hujjatbozlik, qog‘ozbozlikning oldi olindi va byurokreatiyaga chek qo‘yildi. Mamlaktimizda fuqarolar mehnat bozorida o‘zlariga ma‘qul bo‘lgan ishni topishida ko‘maklashish maqsadida vakant lavozimlarning yagona ochiq portali – vacancy.argos.uz platformasi ishga tushirildi.

Konstitutsiyamizda davlat xizmatini o‘tash bilan bog‘liq bo‘lgan cheklolvar qonun bilan belgilanishi keltirilib o‘tilgan. Sud tomonida muomala layoqati cheklangan, muomalaga layoqsiz deb

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risi”dagi Qonuni 08.08.2022

<sup>2</sup> Gazeta.uz. Markaziy bank – mehnat bozoridagi tendensiyalar haqida. 23.01.2024.

topilgan, shuningdek, sud qarori asosida davlat fuqarolik xizmatlariga kirish huquqidan mahrum bo'lgan hamda korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarga nisbatan davlat fuqarolik xizmatini o'tashga oid cheklashlar mavjud.

Kuni kecha Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan “Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”gi Qonunning imzolanishi katta demokratik hodisa bo'lib, qonunnig asosiy g'oyasi davlat va jamiyat manfaatlari shaxsiy manfaatlardan ustun turishini mujassamlashtirgan.

Umumiy olib qaraganda qonun shaxsiy manfaatdorlik orqali urug'-aymoqchilikning oldini olishga qaratilgan. Qonun asosan ikki yo'nalishdan mehnat munosabatlari va iqtisodiy yo'nalishlardan tarkib topgan bo'lib, mehnat munosabatlarida davlat organlari va tashkilotlarda qarindosh-urug'larning bir-birining qo'l ostida ish yuritishini cheklasa, iqtisodiy taraflama esa davlat tashkilotlari va organlaridagi moliyaviy munosabatlarda hamda davlat xaridlari bilan bog'liq munosabatlarda qarindosh-urug'chilikka barham berishda ifodalaniladi. Ushbu qonunning qabul qilinishi huquqiy jihatdan katta hodisa bo'lib, fuqarolarning davlat xizmatiga qabul qilinishida ochiqlik, shaffoflik va adolatni ta'minlashning muhim poydevori bo'lib xizmat qiladi.

**Qisqa xulosa:**Erkin kasb tanlash, mehnat qilish, davlat xizmatiga qabul qilinish va faoliyat o'tash bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar orqali har bir shaxs qonun bilan taqiqlanmagan har qanday faoliyat turi bilan shug'ullanishi, har qanday ish va xizmat turini bajarishi mumkin.

Bu orqali fuqarolar davlat tashkilotlari, organlari, jamoat birlashmalari, muassasa, korxonalar, nodavlat notijorat tashkilotlarda hamda xo'jalik tashkilotlarida mehnat qilish huquqiga ega. Davlat fuqarolik xizmati bilan bog'liq bo'lgan normalarning Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga kiritilishi ishga kirish, normal sharoitlarda mehnat faoliyatini olib borish, ish tashlash va ishdan bo'shah hamda mehnatni muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan mehnat munosabatlarini tartibga solishda ahamiyati katta. Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash sohasida olib borilayotgan davlat siyosati orqali yoshlarni kasbga tayyorlash maqsadida kasb-hunar kollejlari mutaxassislarni tayyorlash, oliy o'quv yurtlarida boshqaruv va xo'jalik faoliyat uchun yetuk kadrlarni shakllantirish yo'lga qo'yilmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan norma asosida davlat fuqarolik xizmatiga kirishda barcha shaxslarga teng imkoniyat va sharoitlar yaratildi hamda ularni qabul qilinishi tanlov asosida olib boriladigan bo'ldi. Bu esa tanish-bilishchilik, manfaatlar to'qnashuvi, qarindosh-urug'chilik kabi salbiy illatlarning oldini olibgina qolmasdan, chuqur bilim va yuksak qobiliyatga ega, intellektual salohiyatli kadrlarni jamiyada voyaga yetkazishga imkon beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. 2023. 25-bet.
2. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: Darslik. – “Toshkent” 2022. 130-131-betlar.
3. Yuridik fanlari doktori Xushvaqt Xayitovning “Har bir fuqaroga davlat xizmatiga kirishda teng huquqlar beriladi” nomli maqolasidan. 15.04.2023.
4. O'zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to'g'risi”dagi Qonuni 08.08.2022.
5. Sh. Mirziyoyevning “Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni. 08.05.2023.
6. Gazeta.uz. Markaziy bank – mehnat bozoridagi tendensiyalar haqida. 23.01.2024.
7. <https://namangan.adliya.uz>
8. <https://xabar.uz>
9. <https://lex.uz>